



# ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2023- yil yanvar-dekabr oylari  
uchun dastlabki ma'lumot*

## ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
74 228-30-37*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 5 030,3 mln. AQSh dollariga yetdi va 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 747,8 mln. AQSh dollariga yoki 17,5 % ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar- dekabr, mln. AQSh dollari)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: 5 030,3 +17,5 %

(2022- y.: 4 282,5)



Saldo

2023- y.: -2 714,4 (2022- y.: -1 789,5)




#### Eksport

2023- y.: 1 157,9 -92,9 %

(2022- y.: 1 246,5)

TSA dagi ulushi, % da



23,0



#### Import

2023- y.: 3 872,4 +27,5 %

(2022- y.: 3 036,0)



77,0

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi 1 157,9 mln. AQSh dollariga (7,1 % ga kamaydi) va import hajmi 3 872,4 mln. AQSh dollariga (27,5 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida -2 714,4 mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



## ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2023- yil yanvar- dekabr, mln. AQSh dollar)

| Koreya Respublikasi   | XXR  | Qozog'iston  | Rossiya Federatsiya   | Braziliya   |
|---|--|--|---|---|
| TSA – 1 417,2   | TSA – 1 391,3  | TSA – 544,2  | TSA – 330,7   | TSA – 222,3   |
| Eksport: 0,3<br>Import: 1 416,9   | Eksport: 65,8<br>Import: 1 325,5   | Eksport: 535,8<br>Import: 8,4  | Eksport: 224,3<br>Import: 106,4   | Eksport: 0,3<br>Import: 222,0   |
|  28,2 % |  27,7 % |  10,8 % |  6,6 % |  4,4 % |
| Qirg'iz Respublikasi  | Meksika  | AQSH   | Turkiya   | Hindiston   |
| TSA – 216,8   | TSA – 214,7  | TSA – 165,6  | TSA – 102,6   | TSA – 56,4  |
| Eksport: 176,8<br>Import: 39,9  | Eksport: -<br>Import: 214,7  | Eksport: 1,8<br>Import: 163,8  | Eksport: 24,5<br>Import: 78,1   | Eksport: 0,3<br>Import: 56,1  |
|  4,3 %  |  4,3 %  |  3,3 %  |  2,0 % |  1,1 % |

Andijon viloyati jahoning 84 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (28,2 %), XXRda (27,7 %), Qozog'istonda (10,5 %), Rossiya Federatsiyasida (6,6 %), Braziliya (4,4 %) va Qirg'iz Respublikasida (4,3 %) qayd etilgan.



## ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


*(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollar)*

| Davlatlar                    | 2021- y.       | 2022- y.       | 2023- y.       |
|------------------------------|----------------|----------------|----------------|
| <b>Koreya Respublikasi</b>   | <b>1 258,1</b> | <b>1 552,2</b> | <b>1 417,2</b> |
| <i>Eksport</i>               | 0,9            | 0,9            | 0,3            |
| <i>Import</i>                | 1257,2         | 1551,3         | 1416,9         |
| <b>XXR</b>                   | <b>525,0</b>   | <b>639,4</b>   | <b>1 391,3</b> |
| <i>Eksport</i>               | 156,8          | 58,7           | 65,8           |
| <i>Import</i>                | 368,2          | 580,7          | 1325,5         |
| <b>Qozog'iston</b>           | <b>358,1</b>   | <b>463,9</b>   | <b>544,2</b>   |
| <i>Eksport</i>               | 348,0          | 454,7          | 535,8          |
| <i>Import</i>                | 10,1           | 9,2            | 8,4            |
| <b>Rossiya Federatsiyasi</b> | <b>280,3</b>   | <b>459,5</b>   | <b>330,7</b>   |
| <i>Eksport</i>               | 89,6           | 181,3          | 224,3          |
| <i>Import</i>                | 190,6          | 278,1          | 106,4          |
| <b>Braziliya</b>             | <b>17,9</b>    | <b>68,3</b>    | <b>222,3</b>   |
| <i>Eksport</i>               | 0,1            | 0,5            | 0,3            |
| <i>Import</i>                | 17,8           | 67,9           | 222,0          |
| <b>Qirg'iz Respublikasi</b>  | <b>329,8</b>   | <b>465,5</b>   | <b>216,7</b>   |
| <i>Eksport</i>               | 300,0          | 429,5          | 176,8          |
| <i>Import</i>                | 29,9           | 36,0           | 39,9           |
| <b>Meksika</b>               | <b>6,1</b>     | <b>86,4</b>    | <b>214,7</b>   |
| <i>Eksport</i>               | 0,00005        | 0,0001         | 0,0            |
| <i>Import</i>                | 6,1            | 86,4           | 214,7          |
| <b>AQSh</b>                  | <b>70,5</b>    | <b>82,8</b>    | <b>165,6</b>   |
| <i>Eksport</i>               | 0,3            | 0,3            | 1,8            |
| <i>Import</i>                | 70,2           | 82,5           | 163,8          |
| <b>Turkiya</b>               | <b>94,9</b>    | <b>110,2</b>   | <b>102,6</b>   |
| <i>Eksport</i>               | 32,3           | 40,5           | 24,5           |
| <i>Import</i>                | 62,6           | 69,7           | 78,1           |
| <b>Hindiston</b>             | <b>18,1</b>    | <b>37,8</b>    | <b>56,4</b>    |
| <i>Eksport</i>               | 0,4            | 1,0            | 0,3            |
| <i>Import</i>                | 17,7           | 36,8           | 56,1           |

| Davlatlar  | 2021-y.                          | 2022-y.     | 2023-y.     |
|--|----------------------------------|-------------|-------------|
| <b>Germaniya</b>   | <b>22,8</b>                      | <b>37,9</b> | <b>42,6</b> |
|    | <i>Eksport</i><br>1,0            | 0,7         | 0,3         |
|  | <i>Import</i><br>21,8            | 37,2        | 42,3        |
|    | <b>Belarus</b><br><b>4,5</b>     | <b>9,3</b>  | <b>39,3</b> |
|  | <i>Eksport</i><br>1,7            | 3,4         | 33,3        |
|  | <i>Import</i><br>2,8             | 5,9         | 6,0         |
|    | <b>Slovakiya</b><br><b>6,0</b>   | <b>12,6</b> | <b>30,6</b> |
|  | <i>Eksport</i><br>0,0            | 0,001       | 0,0         |
|  | <i>Import</i><br>6,0             | 12,6        | 30,6        |
|    | <b>Ozarbayjon</b><br><b>8,3</b>  | <b>23,5</b> | <b>26,3</b> |
|  | <i>Eksport</i><br>7,2            | 23,0        | 26,2        |
|  | <i>Import</i><br>1,1             | 0,5         | 0,1         |
|  | <b>Afg'oniston</b><br><b>3,4</b> | <b>10,6</b> | <b>22,3</b> |
|  | <i>Eksport</i><br>3,2            | 10,6        | 22,3        |
|  | <i>Import</i><br>0,2             | 0,01        | 0,003       |
|  | <b>Tojikiston</b><br><b>4,7</b>  | <b>15,8</b> | <b>20,8</b> |
|  | <i>Eksport</i><br>1,9            | 14,4        | 20,1        |
|  | <i>Import</i><br>2,8             | 1,4         | 0,7         |
|  | <b>Vietnam</b><br><b>3,6</b>     | <b>1,0</b>  | <b>17,3</b> |
|  | <i>Eksport</i><br>0,4            | 0,01        | 0,04        |
|  | <i>Import</i><br>3,2             | 1,0         | 17,3        |
|  | <b>Italiya</b><br><b>15,9</b>    | <b>13,4</b> | <b>14,9</b> |
|  | <i>Eksport</i><br>2,3            | 4,7         | 2,0         |
|  | <i>Import</i><br>13,6            | 8,7         | 13,9        |
|  | <b>Polsha</b><br><b>11,6</b>     | <b>11,7</b> | <b>16,0</b> |
|  | <i>Eksport</i><br>1,3            | 1,3         | 0,6         |
|  | <i>Import</i><br>10,3            | 10,4        | 15,4        |
|  | <b>Chexiya</b><br><b>17,8</b>    | <b>24,4</b> | <b>15,8</b> |
|  | <i>Eksport</i><br>0,05           | 0,1         | 0,0         |
|  | <i>Import</i><br>17,7            | 24,2        | 15,8        |



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-dekabr)\*



2022- y.

2023- y.

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSH dollarari

65,6 %

Asaka - 3 299,2

14,4 %

Andijan sh. - 726,0

3,8 %

Buloqboshi - 193,3

Eng quyi hajm,  
mln. AQSH dollarari

0,5 %

Izboskan - 26,8

0,5 %

Paxtaobod - 26,2

0,5 %


Ulug'nor - 24,1

Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani 65,5 % ulush bilan 3 299,2 mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani 0,5 % ulush bilan 24,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



## ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMILAKATLARI VA BOSHQA XORIJUY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 23,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga kamaydi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan 10,2 % ga ko‘paydi va jami TSAdagi ulushi 76,3 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 1 193,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 1 027,7 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 165,3 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



## ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari)

### **Rossiya Federatsiyasi**

TSA – 330,7  
Eksport – 224,3  
Import – 106,4



### **Qozog'iston**

TSA – 544,2  
Eksport – 535,8  
Import – 8,4



### **Qirg'iz Respublikasi**

TSA – 216,7  
Eksport – 176,8  
Import – 39,9



### **Ozarbajyon**

TSA – 26,3  
Eksport – 26,2  
Import – 0,1



### **Belarus Respublikasi**

TSA – 39,3  
Eksport – 33,3  
Import – 6,0



### **Tojikiston**

TSA – 20,8  
Eksport – 20,1  
Import – 0,7



### **Moldova Respublikasi**

TSA – 2,9  
Eksport – 2,4  
Import – 0,5



### **Ukraina**

TSA – 7,8  
Eksport – 4,7  
Import – 3,1



### **Turkmaniston**

TSA – 3,7  
Eksport – 3,4  
Import – 0,3



### **Armaniston**


TSA – 0,7  
Eksport – 0,7  
Import – -



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushi Qozog'iston (46,5 %), Rossiya Federatsiyasi (26,6 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (18,6 %) bilan qayd etildi.

## ANDIJON VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollarari, ulushi, % da)



Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi

2,5 %

Jami eksportdagи ulushi

83,8 %

Jami importdagи ulushi

4,1 %



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 1 131,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi 970,9 mln. AQSh dollarari, import hajmi esa 160,7 mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyordi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyordi soni 439 taga yetdi va ular tomonidan 1 157,9 mln. AQSh dollari qiymatidagi (2022-yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnlarda – XSST) ishlatalidi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

| XSST tarkibi  | mIn. AQSh dollarri |         | O'zgarish sur'ati, % da |       | Umumiy hajmga nisbatan, % da |       |
|---|--------------------|---------|-------------------------|-------|------------------------------|-------|
|   | 2022               | 2023    | 2022                    | 2023  | 2022                         | 2023  |
| Jami eksport  | 1 246,5            | 1 157,9 | 127,3                   | 92,9  | 100,0                        | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i>  |                    |         |                         |       |                              |       |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                        | 40,0               | 38,0    | 101,1                   | 94,9  | 3,2                          | 3,3   |
| Ichimliklar va tamaki   | 2,1                | 5,7     | 15,9 m                  | 2,7 . | 0,2                          | 0,5   |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                       | 5,9                | 3,7     | 52,2                    | 63,4  | 0,5                          | 0,3   |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 10,7               | 1,3     | 33,9 m                  | 12,5  | 0,8                          | 0,1   |
| Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar                 | 26,3               | 21,0    | 11,6 m                  | 79,9  | 2,1                          | 1,8   |
| Sanoat tovarlari  | 285,1              | 239,7   | 91,1                    | 84,1  | 22,9                         | 20,7  |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar                           | 473,6              | 535,0   | 129,9                   | 113,0 | 38,0                         | 46,2  |
| Turli xil tayyor buyumlar   | 389,4              | 300,0   | 162,2                   | 77,0  | 31,2                         | 25,9  |
| Xizmatlar   | 13,4               | 13,5    | 174,6                   | 101,0 | 1,1                          | 1,2   |

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,9 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalar (46,2 %), turli xil tayyor buyumlar (25,9 %), sanoat tovarlari (20,7 %), kimyoviy vositalar (1,8 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-dekabr)

| XSST bo'limi nomi   | Ming AQSh dollarri | 2022- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|--------------------|--|
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>   |                    |  |
| Sabzavotlar va mevalar  | 35 658,9           | 93,0                                     |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar   | 957,5              | 10,7 m.                                  |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar   | 845,4              | 86,3                                     |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari  | 312,0              | 54,2                                     |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal  | 201,6              | 74,3 m.                                  |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar  | 9,7                | 98,6 m.                                  |
| <b>Ichimliklar va tamaki</b>  |                    |  |
| Ichimliklar   | 5 705,9            | 2,7 m.                                   |
| <b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>  |                    |  |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari   | 2 513,1            | 49,6                                     |
| Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan                                    | 572,1              | 164,5                                    |
| Moy olinadigan urug'lар va moy olinadigan mevalar   | 424,9              | 103,4                                    |
| 56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 122,7              | 148,5                                    |
| Probka va yo'goch-taxtalar  | 117,5              | 6,5 m.                                   |
| Metall rudalari va metall parchalari  | 3,1                | -  |
| Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina ham)  | 1,4                | -  |
| <b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>  |                    |  |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar  | 1 333,7            | 12,6                                     |
| <b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>  |                    |  |
| O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan  | 0,2                | 31,8                                     |
| <b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>  |                    |  |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar   | 18 877,2           | 87,2                                     |
| Noorganik kimyo moddalari   | 766,7              | 109,0                                    |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari                     | 596,2              | 3,3 m.                                   |
| Bo'yadigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar  | 275,1              | 180,4                                    |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar   | 230,5              | 28,5                                     |
| Birlamchi shaklda bo'lman plastmassalar   | 225,1              | 181,2                                    |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari  | 20,4               | 0,8                                      |
| Organik kimyo moddalari   | 10,6               | 38,3                                     |


| XSST bo‘limi nomi  | Ming AQSh dollari | 2022- yilning mos davriga nisbatan, % da |
|--|-------------------|--|
| <b>Sanoat tovarlari</b>  |                   |  |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar  | 221 890,3         | 94,6                                     |
| Qog’oz, karton va qog’oz massasi, qog’oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar  | 5 348,3           | 19,6                                     |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan Ruda bo‘limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan    | 5 002,7           | 46,5                                     |
| Rangli metallar  | 3 033,7           | 59,5                                     |
| Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan  | 1 563,1           | 142,1                                    |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)  | 1 528,3           | 79,5                                     |
| Cho‘yan va po‘lat  | 1 184,8           | 28,7                                     |
| Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, mo‘yna  | 115,2             | 44,5                                     |
|  | 8,9               | 127,0                                    |
| <b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>  |                   |  |
| Avtomobillar (shu jumladan, havo transporti vositalari)  | 347 674,8         | 120,7                                    |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar   | 160 039,8         | 97,4                                     |
| Sanoat uchun maxsus bo‘limgan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari.   | 13 980,9          | 165,6                                    |
| Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari.  | 11 032,3          | 91,1                                     |
| Boshqa transport uskunalarini  | 1 649,1           | 11,7 m.                                  |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar   | 467,6             | 103,9                                    |
| Kanselyariya mashinalari va ma‘lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar   | 59,3              | 4,1 m.                                   |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalarini   | 46,8              | 2,2 m.                                   |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari   | 2,5               | 33,3                                     |
| <b>Turli xil tayyor buyumlar</b>   |                   |  |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari  | 278 435,2         | 78,9                                     |
| Poyabzal   | 13 795,2          | 59,1                                     |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash tikilgan mebel                       | 2 950,2           | 58,8                                     |
| Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan   | 2 864,9           | 74,6                                     |
| Yo‘l anjomlari, sumkalar va shunga o‘xshash konteynerlar   | 1 597,0           | 40,5                                     |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan   | 308,6             | 2,4 m.                                   |
| Blokli binolar, suv o’tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalarini uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan | 22,9              | 19,8                                     |
| Fotografik apparatura, uskuna, ishlataladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar                                    | 5,2               | 125,0                                    |

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqgan mamlakat, agar kelib chiqgan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida MDH mamlakatlariga 1 027,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportdagi ulushi 88,8 % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iz Respublikasi, XXR, Belarus, Ozarbayjon va Turkiya kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 94,0 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-dekabr, % da)





## ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-dekabr, yillar kesimida)

| Davlatlar             | mIn. AQSh dollarri |       | O'sish sur'ati,<br>% da |         | Egallab turgan<br>o'rni |      |
|-----------------------|--------------------|-------|-------------------------|---------|-------------------------|------|
|                       | 2022               | 2023  | 2022                    | 2023    | 2022                    | 2023 |
| Qozog'iston           | 454,7              | 535,8 | 130,7                   | 117,8   | 1                       | 1    |
| Rossiya Federatsiyasi | 181,3              | 224,3 | 2,0 m.                  | 123,7   | 3                       | 2    |
| Qirg'iziston          | 429,5              | 176,8 | 143,2                   | 41,2    | 2                       | 3    |
| Xitoy                 | 58,7               | 65,8  | 37,5                    | 112,1   | 4                       | 4    |
| Belarus               | 3,4                | 33,3  | 197,4                   | 9,7 m.  | 12                      | 5    |
| Ozarbajjon            | 23,0               | 26,2  | 3,2 m.                  | 113,6   | 6                       | 6    |
| Turkiya               | 40,5               | 24,5  | 125,5                   | 60,5    | 5                       | 7    |
| Afg'oniston           | 10,6               | 22,3  | 3,3 m.                  | 2,1 m.  | 8                       | 8    |
| Tojikiston            | 14,4               | 20,1  | 740,1                   | 139,7   | 7                       | 9    |
| BAA                   | 0,3                | 5,8   | 2,3 m.                  | 19,1 m. | 28                      | 10   |
| Ukraina               | 4,9                | 4,7   | 32,3                    | 95,5    | 9                       | 11   |
| Turkmaniston          | 0,4                | 3,5   | 30,7                    | 9,2 m.  | 26                      | 12   |
| Moldova Respublikasi  | 4,4                | 2,3   | 99,6                    | 52,9    | 11                      | 13   |
| Italiya               | 4,7                | 2,0   | 2,1 m.                  | 42,5    | 10                      | 14   |
| AQSh                  | 0,3                | 1,8   | 76,6                    | 6,4 m.  | 29                      | 15   |
| Pokiston              | 2,1                | 1,6   | 39,9                    | 73,8    | 14                      | 16   |
| Latviya               | 2,9                | 0,9   | 3,8 m.                  | 33,0    | 13                      | 17   |
| Bangladesh            | 0,7                | 0,8   | 14,4 m.                 | 123,9   | 22                      | 18   |
| Polsha                | 0,4                | 0,7   | 5,0 m.                  | 196,9   | 27                      | 19   |
| Armeniya              | 1,3                | 0,6   | 99,1                    | 42,8    | 15                      | 20   |



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-dekabr)\*

|               |       |
|---------------|-------|
| Andijon sh.   | 115.3 |
| Xonobod sh.   | 107.9 |
| Oltinko'l     | 21.4  |
|               | 43.3  |
| Andijon       | 55.0  |
|               | 16.2  |
| Baliqchi      | 44.8  |
|               | 47.3  |
| Bo'ston       | 41.1  |
|               | 41.6  |
| Buloqboshi    | 26.8  |
|               | 34.3  |
| Jalaquduq     | 14.2  |
|               | 22.1  |
| Izboskan      | 51.1  |
|               | 68.9  |
| Ulug'nor      | 16.1  |
|               | 26.3  |
| Qo'rg'ontep'a | 21.8  |
|               | 12.8  |
| Asaka         | 21.3  |
|               | 49.6  |
| Marhamat      | 577.2 |
| Shahrixon     | 539.9 |
